

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“MENEJMENT” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK:338.33(338.24)

SHAFAYZIEVA SHOXISTA QUDRATILLAEVNA

**KORXONANING ISHLAB CHIQRISH SALOHIYATIDAN
FOYDALANISHNI BOSHQARISH**

**70411201 – Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S I Y A


Ilmiy rahbar:


Dots.Yusupova D. T.


TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Menejment" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

12 -sonli bayonnoma " 19 " may 2023 y.

Kafedra mudiri: Yo'ldoshev N.Q.  19.05.23
imzo sana

Ilmiy rahbar: Yusupova D.T.  18.05.23.
imzo sana

Talaba: Shafayzieva Sh.Q.  18.05.23
imzo sana

ANNOTATSIYA

Magistrlik dissertatsiyasi tikuv-trikotaj korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni boshqarish muammosiga qaratilgan bo'lib, ilmiy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Tikuv-trikotaj korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni boshqarishning iqtisodiy mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar hamda uni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimining xususiyatlari asoslangan.

“FULL COTTON” MChJ korxonasida ishlab chiqarishni tashkil etish holati, hamda asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, shuningdek “FULL COTTON” MChJ korxonasida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni boshqarish xolati taxlil qilingan.

Magistrlik dissertatsiyasida tikuv-trikotaj korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni boshqarish, xususan uni rivojlantirish yullari, sifat menejmenti tizimini tatbiq etishning asosiy bosqichlari hamda tikuv-trikotaj korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. *Tizim, muhit, maqsad, dastur, ishlab chiqarish quvvati, asosiy fondlar, fond samaradorligi, fond qaytimi, tovar mahsuloti, moddiy resurs, texnikaviy resurs, mehnat resurlari, xomashyo, samara, foyda, xomashyo sarfi, ishlab chiqarish, mahsulot.*

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	4
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	5
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	6
Keltirilgan qisqartmalar.....	6
I BOB. KIRISH.....	7
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	7
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	8
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	8
1.4. Tadqiqotning ob‘ekti va predmeti.....	9
1.5. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	10
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	11
2.1. Korxonaning ishlab chiqarish quvvatining mohiyati	11
2.2. Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlari va va uning korxonada ishlab chiqarish salohiyatidagi o‘rni.....	15
III BOB. METODOLOGIYA.....	19
3.1. To‘qimachilik sanoati korxonalarida asosiy fondlar holati va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni baholashning metodologik masalalari.....	19
3.2. Korxonada mashina va dastgohlardan foydalanishning ishlab chiqarish faoliyatiga ta’sirini baholash uslubiyoti.....	29
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	37
4.1. “FULL COTTON” MChJ korxonasining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari taxlili.....	37
4.2. “FULL COTTON” MChJ ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda innovatsion faoliyatining o‘rni.....	46
V BOB. XULOSA.....	55
5.1. Korxonada ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni yaxshilash yo‘llari.....	55
Foydalanilgan adabiyotlar.....	60
Ilovalar.....	70

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Korxonalar yoki firmaning ishlab chiqarish quvvati belgilangan mahsulot turlari bo'yicha eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish hajmiga o'rnatilgan jihozlardan, bino va inshootlardan, ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyani qo'llash, mehnatni unumli tashkil etish va jihozlarning unumdorligidan to'liq foydalanish orqali erishishni belgilaydi. Demak, korxonalar quvvati ishlab chiqarish dasturi bo'yicha belgilangan mahsulot hajmidan yuqori bo'ladi.

Asosiy fondlardan va ishlab chiqarish quvvatlardan foydalanishni yaxshilash ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, kapital mablag' sarflamay qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga, mehnat unumdorligini va samaradorlikni o'sishiga xamda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga imkon yaratadi.

Mahsulot ishlab chiqarishdan olingan natijalarni korxonalar quvvati bilan solishtirish korxonaning mahsulot xajmini oshirish bo'yicha ichki imkoniyati haqida ma'lumot beradi.

Yengil sanoatga tegishli korxonalarining ham ishlab chiqarish quvvatlarini hisoblashni o'ziga hos farqlari bor.

To'qimachilik sanoatida, masalan yigiruv va to'quv korxonalarida ishlab chiqarish quvvatini oxirgi o'timdagi jihozlarning quvvati bilan, ya'ni yigiruvda yigiruv urchuqlari, to'quvda – to'quv stanoklari bo'yicha hisoblanadi. Bu shunga asoslanadiki, korxonada oxirgi o'timning quvvatidan ortiq miqdorda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati bo'lmaydi.

Poyafzal ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish quvvati tikuvchilik sexida o'rnatilgan yetakchi jihozlarning quvvati bo'yicha hisoblanadi.

Tikuvchilik korxonalarida ishlab chiqarish quvvati tikuv konveyerlarining quvvati asosida hisoblanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati mahsulot ishlab chiqarish dasturida belgilangan assortiment turi uchun hisoblanadi, chunki assortiment turi o'zgarsa, quvvat ham o'zgaradi.